

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA JISMONIY TARBIYA DARSLARINI TASHKIL ETISHNING INTEGRAL TA'LIM TEXNALOGYALARI

Rustamova Laylo Mardonovna

Navoiy shahar 8 -maktab jismoniy tarbiya o`qituvchisi

Qosimova Xurshida Sirojiddinovna

Navoiy shahar 8 -maktab jismoniy tarbiya o`qituvchisi

Annotatsiya: Maktab yoshidagi bolalarda jismoniy tarbiya jarayoni pedagoglardan maktabda ishlash uchun jismoniy tarbiyaning asosi nimalardan iboratligi, uning mazmuni, tashkil qilinishini, bolalarni harakatga o`rgatish metodikasini bilishni talab qiladi. Maktab yoshidagi bolalarda jismoniy tarbiya jarayoni pedagoglardan maktabda ishlash uchun jismoniy tarbiyaning asosi nimalardan iboratligi, uning mazmuni, tashkil qilinishini, bolalarni harakatga o`rgatish metodikasini bilishni talab qiladi.

Kalit so`zi: jismoniy tarbiya, o`quvchilar jismoniy tarbiyasi jarayoni, sog'lomlashtirish, sport.

Jismoniy tarbiya jarayonida ahloqiy, aqliy, estetik tarbiya hamda mehnat tarbiyasi yuksak natijalar erishishga asos bo'ladi. Shaxsni barkamol inson qilib rivojlantirishda barcha tarbiya turlari birdek xizmat qiladi. Shuning uchun maktabda jismoniy tarbiya tadbirlari, sport trenirovkasi mashg'ulotlari jarayonlari barcha ommaviy jismoniy tarbiya jarayonlarida tarbiyaning turlari tengdan tashkil etilganda ko'zlangan maqsadga erishish oson bo'ladi. Axloqiy tarbiya. Jismoniy va axloqiy tarbiya o'rtasida ikki tomonlama bog'liqlik mavjud. Bu bog'liqlik shaxsning har tomonlama va uyg'un rivojlanishi qonuniyatlari bilan belgilanadi. Ahloqiy tarbiyaning mazmuni ijtimoiy va davlat manfaatlarini yuqori tutish, mehnat va vatan himoyasiga tayyorlanishda salomatlikni mustahkamlash va jismoniy qobiliyatlarni takomillashtirish shuningdek, jismoniy madaniyat va sport inshootlarini asrash, ulardan qoidali foydalanish, jismoniy tarbiyada jamoatchilik ahloqiy kamolotga erishish. Sport etikasi-bu sportchining o'ziga xos faoliyatida uning uchun majburiy bo'lgan axloq normalari va qoidalarining yig'indisidir. Sportchilarni ahloqiy fazilatlarini insoniylik manfaatlarini ko'zlab jismoniy kamolot uchun, salomatlikni mustahkamlash hamda ijodiy uzoq umr ko'rish uchun kurashda ongli intizom, sportcha mehnatsevarlik namoyon qilish; jismoniy qobiliyatlarini ishlab chiqarish mehnatida ijtimoiy faoliyatda qo'llash; yuksak sport mahorati va jaxon rekordlarini o'rnatish uchun aktiv kurashib, o'z Vatanga, sportiga hamda jismoniy madaniyat jamoasiga shuxrat keltirish; jismoniy madaniyat va sportni halq xayotiga singib borilishini targ'ibot kilishni o'zining ijtimoiy burch; sport tajribalarini yoshlarga, sport bilan yangi shug'ullanuvchilarga, yosh sportchilarga

berish hisoblanadi. Sportchi kamtar, vijdonli, rostgo'y, adolatli bo'lishi, belgilangan qoidalarni bekami ko'st bajarish, ozoda, batartib va xushmomila bo'lishi, sportdagi raqibi, xakami va tomashabinlarni xurmat qilishi, o'zining xizmatlari, sportda erishgan yutuqlari bilan mag'rurlanmasligi, sport rejimiga kat'iy amal qilishi kerak. Iroda sportchining aql-idrok va axloqiy xis-tuyg'ularning faol jixati sifatida uning faoliyatini, xatti- harakatini, maydonchasida ham, mehnat va turmushda ham tartibga solib turadi. Maqsad sari intilish, kat'iylik, botirlik, o'zini tuta bilish, sabot-matonat, tashabbuskorlik shaxsning irodaviy sifatlaridir. Jismoniy tarbiyaning jarayoni irodaviy fazilatlarining umumiy rivojlantirishni nazarda tutadi. Bulardan tashqari, sport tayyorgarligida va amaliy jismoniy tayyorgarlikning hilma-xil turlarida tanlangan sport faoliyatiga xos qiyinchiliklarni engish uchun zarur bulgan irodaviy fazilatlarini ixtisosga moslab rivojlantirish ham nazarda tutiladi. Biz integratsiyaning mohiyatini aniqlash jarayonida uning falsafiy, pedagogikpsixologik va metodik asoslarini aniqlab oldish muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, o'qitish va tarbiya jarayoni bir-biri bilan uzviy bog'liq, lekin inson shaxsining shakllanishida tarbiya yani jismoniy tarbiya ustuvor ahamiyat kasb etadi. Chunki jismoniy tarbiya ta'lim jarayonining barcha jihatlarni o'z ichiga oladi. Zamonaviy intellektual insonni tarbiyalashda integrativ ta'limning barcha jihatlari (aqliy, axloqiy, iqtisodiy, mehnat, estetik, gigenik, huquqiy, jismoniy tarbiya)ni qamrab oladi va ularning o'zaro bog'liqligini ta'minlaydi. Integrativ jismoniy ta'lim jarayonida o'quvchi, olamning yaxlitligini, koinot, tabiat qonunlarini, tabiat, jamiyat va insonlarning o'zaro munosabatlari haqida har tomonlama bilimlarga ega bo'lib kamol topadi. Tabiat go'zalligini his qila olish, undan zavqlanish, e'zozlash ko'nikmalariga ega bo'ladi. Ta'limning globallashuvi sharoitida fanlararo uzviylikni kengroq qo'llash ayni zaruriyatdir. Fanlararo uzviylik tamoyiliga tayanish ta'lim muassasalari o'quv jarayoni uchun tatbiqiy tus olishi lozim. Fanlararo uzviylik tamoyili turdosh o'quv predmetlararo munosabatlarning murakkab jihatlarni to'liq o'zlashtirilishini ta'minlab, bilimlarning ichki mohiyatiga kirib borishini ta'minlaydi, natijada turli tizimlar ichki aloqadorlik, integrativ yaxlitlik vujudga keladi. O'quv jarayonida fanlararo aloqadorlikning amalga oshirilishi ta'lim sifatiga kuchli ta'sir ko'rsatib, ta'limni modernizatsiyalash, innovatsion o'qitish imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi hamda fanlararo aloqadorlik ta'minlangan holda darsni tashkil qila olgan o'qituvchi o'quvchilarda o'zining faniga bo'lgan qiziqishini oshiribgina qolmasdan, mazkur fanni o'zlashtirishga yordam beradi. Fanlararo aloqadorlikni tizimli tarzda amalga oshirish natijasida o'quv-tarbiya jarayonining aloqadorligi sezilarli darajada ortadi. Shuning uchun boshqa fanlarda bo'lgani kabi Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya darslarini tashkil etishda integral ta'lim texnologiyalari foydalanishning samarasi yuqori. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida jismoniy tarbiyaning maqsadi o'quvchi yoshlar tanasidagi barcha a'zolaming sog'lom o'sishini ta'minlash hamda ulami aqliy va jismoniy mehnatga, shuningdek, Vatan

mudofaasiga tayyorlashdir. Maktab o'quvchilari jismoniy tarbiyasining vazifalarini amalga oshirish maxsus uyushtirilgan mashg'ulotlar orqali amalga oshiriladi. Mashg'ulotlar davomida mashqlarni amalga oshirish orqali jismoniy tarbiyaning uslubi va metodik tamoyillari, tarbiya va ta'limning vositalari aniqlashtiriladi va yuzaga chiqariladi. Bizning maktablarimiz uchun mashg'ulotlarning xilma-xil shakllari xosdir. Shu bilan birga, uslubiy manbalar qatorida faqat jismoniy mashg'ulotlarning davom etish vaqtini ko'paytirish zaruriyatidan kelib chiqqan holda o'quvchilarning ehtiyojlari qondiriladi. Shu asosda barcha shakldagi mashg'ulotlar tahlili, ularni maktabda, maktabdan tashqarida, oilada o'tkazishning shart-sharoitlari shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar jismoniy tarbiyasini uyushtirishga majmualiy yondashuvdan hech bo'lmaganda bitta halqa chiqarib olinsa, pedagogik jarayonning uzluksizligi buziladi, jismoniy tarbiyaning barcha vazifalari sifatli yechim topadi. O'quvchilar jismoniy tarbiyasi jarayonida umumiy va xususiy vazifalar hal qilinadi. Umumiy vazifalar bilim berish, jismoniy tarbiyalash va sog'lomlashtirishdan iborat bo'lib, xususiylari esa jismoniy tarbiya bo'yicha Davlat ta'lim standartidagi maxsus vazifalar tarzida hal qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Б.А.Ашмарин. Теория и методика физического воспитания. Москва. 1979.
2. Л.Матвеев. Жисмоний тарбия назарияси ва методикаси. Москва. 1982.
3. Б.А.Ашмарин. Жисмоний тарбия назарияси ва методикаси. Москва. 1984.
4. Теория и методика физического воспитания. Под ред. Б.А.Ашмарина. М., 1987.